



BOLALIKNI BOLALARGA QAYTARAYLIK

Ro‘zimboyeva Kumushoy Shodlik qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti

3-bosqich talabasi

Rozimboyevakumush34@gmail.com

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan turli xildagi kontentlar bir tarafdin uni ko‘rayotgan tomoshabin uchun ko‘ngilochar mashg‘ulotdek ko‘rinsa-da, aslida ular orqali ifoda qilinayotgan holatlar jamiyatda axloq normalariga to‘g‘ri kelmaydigan mavzularni normal holatdek ko‘rsatib qo‘ymoqda. Kuni kecha Instagram tarmog‘ida hali maktabga ham qadam qo‘ymagan bolaning o‘z otasiga uni uylantirib qo‘yishi mazmunidagi gaplari video tariqasida namoyish etilib, ko‘plab obunachilarning “like”lariga sabab bo‘ldi. Yoki yosh qizaloqning o‘z ota-onasiga behurmatlik bilan qilgan muomalasi odatiy holdek qabul qilinishi ham shu kabi holatlarga misoldir.

Bunday kontentlar orqali jamiyat ongiga astalik bilan ularda ifoda etilayotgan noxush holatlar tabiiy holatdek singib borib, bora- bora jamiyatdagi odob-axloq normalarini siqib chiqarmoqda. Bu esa o‘z o‘rnida uni tomosha qilayotgan tomoshabin bilan birga, unda rol ijro etayotgan bolalar ongiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Hali to‘la oq- u qorani ajratish layoqatiga ega bo‘lmagan bolalar shu kabi materiallardan ta‘sirlangan holda ulg‘ayib, bilvosita ma‘naviy ongni turli xildagi noo‘rin ma‘lumotlar bilan to‘ldirmoqda. Bu yaqin bir necha

yillikda salbiy oqibatlarni yaqqol keltirib chiqarmasligi mumkin, ammo vaqt o'tgani sayin bolalar to'xtovsiz shunday kontentlar qurshovidan chiqqa olmay, to'ralikcha ularga qaram bo'lib qolishlari va qaramlik oqibatda axloq normalarini butunlayiga unutilishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli ham bolani nafaqat moddiy tomonlama, balki ma'naviy tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga sifatli muhitni yaratib berish muhimdir. Bu faqat ota-ona yoki oila a'zolarining burchigina bo'lib qolmasdan, butun jamiyatning mas'uliyatidir. Chunki ko'p hollarda bola ijtimoiy munosabatlarga oiladan tashqari muhitda kirishadi. Oiladagi yaxshi muhit uning ma'naviyatining shakllanishida yagona faktor bo'lmasdan, bolalar ko'cha-ko'ydan, maktabdan umuman olganda atrofdan ta'sirlanadi. Bir so'z bilan aytganda "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona hisoblanadi".

Davlatimiz ushbu mas'uliyatni chuqur anglagan holda 1990-yil 20-noyabrda **"Bola huquqlari to'g'risidagi"** konvensiyani qabul qilgan. Ushbu konvensiyada bolalarning ijtimoiy, aqliy, ma'naviy rivojlanishi, "Konvensiyada e'tirof etilgan huquqlarni amalga oshirishda munosib darajada bolani boshqarish va unga rahbarlik qilish hamda bu ishni bolaning rivojlanayotgan qobiliyatlariga muvofiq bajarishdagi mas'uliyati, huquq va majburiyatlar belgilab qo'yilgan". Konvensiyaning 29-moddasida belgilab qo'yilganidek, ishtirokchi davlatlar bolaning shaxsi, iste'dodi, aqliy va jismoniy qobiliyatlari eng to'la hajmda rivojlanishi, inson huquqlari va asosiy erkinliklariga, shuningdek Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida e'lon qilingan prinsiplarga hurmatni tarbiyalash, bolaning ota-onaga, uning madaniy o'ziga xosligi, til va qadriyatlarga, bola

yashayotgan mamlakatning, uning kelib chiqishi mamlakatining milliy qadriyatlariga, uning o'zidan farq qiladigan sivilizatsiyalarga hurmatni tarbiyalash kerakligini o'z roziliklarini bildiradilar.

Ko'rinib turibdiki, konvensiyada belgilangan qoidalar ham bola ulg'ayayotgan muhitni to'raligicha yetuk yaratilishini, bolalarning axloqida milliy urf-odat an'analarga hurmat hissini oshirish kerakligini ifoda etadi. "Biz ko'pincha "yoshlarimizning tarbiyasi buzilyapti"-, deymiz, holbuki buzuq tarbiya osmondan tushayotgani yo'q: o'tmish qoldig'i ma'lum shart-sharoit bo'lmasa davom etolmaydi"- degan edi yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida. Darhaqiqat, bolaning salohiyati, tarbiyasi shakllanishiga barcha birdek ta'sir javobgardir. Bu esa o'z navbatida har kim, ayniqsa, ommaning asosiy e'tibor markazi bo'lgan ijtimoiy tarmoq yurituvchilaridan o'zlari namoyish etayotgan kontentlarga hushyorlik bilan yondashishlarini taqozo etadi.